

Builders of The Future SJIF-2022-5.752

BUILDERS OF THE FUTURE

journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>

THE ROLE OF UNIQUE STRUCTURES ABROAD IN MODERN URBAN PLANNING**Zumradkhon B. Baymetova***Master's student**Tashkent Institute of Architecture and Construction**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: yzumrad@inbox.uz***ABOUT ARTICLE**

Key words: architectural modernism, modernism, constructivism, brutalism, organic architecture, art Deco, neostyle, neoclassicism, functionalism, television tower, complex, experimental, extravagant, ultramodern, flying saucer, Palace of Arts.

Abstract: This article examines the formation of the direction of modernism in foreign urban planning, the influence of this style on European and Asian urban planning that originated in Western countries. Also in this article, the relevance and unique style of unique modernist buildings in our days will be considered.

Received: 02.06.22**Accepted:** 04.06.22**Published:** 06.06.22**CHET ELDA NOYOB INSHOOTLARNING ZAMONAVIY SHAHARSOZLIKDAGI O'RNI****Zumradxon B. Baymetova***Magistratura talabasi**Toshkent arxitektura-qurilish instituti**Toshkent, O'zbekiston**E-mail: yzumrad@inbox.uz***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Me'moriy modernizm, modern, konstruktivizm, brutalizm, organik arxitektura, Art Deco, neostil, neoklassizizm, funksional, tevizion minora, kompleks, eksperimental, ekstravagant, ultrazamonaviy, uchar likopcha, san'at saroyi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Chet el shaharsozligida modernizm yo'naliishing shakllanishi, g'arb davlatlarida vujudga kelgan bu uslubning Yevropa va Osiyo shaharsozligiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Modernizm uslubidagi noyob binolarning hozirgi kundagi ahamiyati va takrorlanmas uslubi ushbu maqolada yoritilgan.

РОЛЬ УНИКАЛЬНЫХ СООРУЖЕНИЙ ЗА РУБЕЖОМ В СОВРЕМЕННОМ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВЕ

Зумрадхон Б. Байметова

студент магистратуры

Ташкентский архитектурно-строительный институт

Ташкент, Узбекистан

E-mail: yzumrad@inbox.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: архитектурный модернизм, модерн, конструктивизм, брутализм, органическая архитектура, ар-деко, неостил, неоклассицизм, функционализм, телевизионная башня, комплекс, экспериментальный, экстравагантный, ультрасовременный, летающая тарелка, Дворец искусств.

Аннотация: В данной статье рассмотрено формирование направления модернизма в зарубежном градостроительстве, влияние этого стиля на европейское и азиатское градостроительство, возникшее в странах Запада. Также в этой статье будет рассмотрена актуальность и неповторимый стиль уникальных зданий в стиле модернизм в наши дни.

KIRISH

Me'moriy modernizm (fr. modernisme — zamonaviy, fransuz tilida moderne — yangi, zamonaviy, inglizcha "modern" – zamonaviy, yangi) — XX asr arxitekturasidagi yangi oqim, o'tmish uslublaridan vos kechib, shakl va dizaynlarni qat'iy yangilanishi, arxitektura tarixidagi burilish nuqtasi. U 1900-yillarning boshidan, 1970—1980-yillarda (Yevropada) arxitekturada yangi tendensiylar paydo bo'lgan davrni qamrab oladi. Maxsus adabiyotda "me'moriy modernizm" atamasi ingliz tilidagi "modern architect", "modern movement" (zamonaviy harakat) atamasi bilan bir xil ma'noda ishlataladigan inglizcha so'zlarga mos keladi.

ASOSIY QISM

Me'moriy modernizm 1920-1930-yillarning Yevropa konstruktivizmi, 1920-yillarida funksionalizm va ratsionalizm, Germaniyaning Bauhaus harakati, me'moriy Art Deco-uslubi, xalqaro uslub, brutalizm, organik arxitektura kabi me'moriy yo'naliishlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, bu yo'naliishlar har biri umumiylar daraxtning shoxlaridir, ya'ni ular me'moriy modernizmning mohiyatidir.



Dessau shahridagi Bauhaus binosi(Valter Gropius)



Sharsharadagi uy (Frank Lloyd Rayt)



Sidney opera teatri (Yorn Utzon)



F. Kennedi nomli Xalqaro aeroportning noodatiy terminali. (Eero Saarinen)

Me'moriy modernizm uslubining namoyondalari — Frank Lloyd Rayt, Valter Gropius, Richard Noitra, Ludwig mis van der Roe, Le Corbusier, Alvar Aalto, Oskar Nimeyer va boshqalar zamonaviy arxitekturasining novatorlaridir.

Arxitektura modernizmi kredosi uning nomiga kiritilgan- bugungi kunga mos keladigan yangidan-yangi narsalarni yaratishdir. Ya'ni, me'morchilikning yangiligi — loyihada yaratilgan konstruktiv-rejalashtirish g'oyalari va tashqi shakllar bo'yicha aloqa o'rnatish mumkin. "Beton va shisha prizmalari" ning majoziy ifodasi modernizm binolarining, umumiy xususiyatini yaxshi ifodalaydi.

Me'moriy modernizmning asosiy tamoyillari:

- eng zamonaviy qurilish materiallari va qurilmalaridan foydalanish (xususan, po'lat yoki temir-beton konstruksiyalar).
- ichki tarhni hal qilish uchun oqilona yondashuv (funksional yondashuv),
- dekoratsiya tendensiyalarining yo'qligi, bino va inshootlarda ko'rinishida tarixiy eslatmalarni tubdan rad etish.
- "xalqaro" xarakterdaligi.

Arxitektura modernizatsiyasi ilmiy-texnikaviy va sanoat taraqqiyotining eng yangi yutuqlariga, shuningdek, o'z davrining ilg'or ijtimoiy-islohotchi g'oyalariga asoslangan edi. Zamonaviy me'morlarning ijtimoiy qarashlari, qoida tariqasida, aniq demokratiyani, hatto yomon tomonni ham — hech bo'limganda uning nazariyotchilarining ko'plab deklaratsiyalarida farq qilardi.

Arxitektura modernizmining oldingi uslublari-bu "neostili" deb ataladi: ruscha modern, Avstriyada setsessiya, Germaniyada yugendstil, Frantsiyada ar-Nouveau, shuningdek, neoklassizizm, keyinchalik hamma joyda rivojlangan (Zamonaviylashtirilgan uslub-postmodernizm, uning asosiy xususiyati to'g'ridan-to'g'ri funksiyadan voz kechish va an'anaviy tarixiy uslublar elementlaridan foydalanishga qaytishdir).

Bu uslub 1954-yil Sovet Ittifoqi boshlig‘i Nikita Xrushevning buyrug‘i bilan butun Ittifoq Respublikalariga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Nikita Xrushovning buyrug‘iga binoan yangi industrial metodlarni kiritish, qurilish narxini kamaytirish, 20 yil davomida qurilgan binolarni barchasini “havoga uchirilgan pul” deb atagan ya’ni asoslanmagan tarzda davlat pulini ko‘kka solish deb atagan. Bu qarori bilan har bir oila uy bilan ta’milanishi va qurilishni tipovoyashtirish orqali uning narxini kamaytirish taklifini kiritgan. Shu qarori sabab sovet modernizm uslubining birinchi poydevori qo‘yilgan. Eskicha (tarixiy) uslubda ishlashga o‘rgangan arxitektorlar uchun bu haqiqiy zarba bo‘ldi. Dunyoning zamonaviy arxitekturasi bilan tanish bo‘limgan me’morlar uchun G‘arb davlatlari ko‘r-ko‘rona misol bo‘ldi. Ular bu uslubni yaratishda chet el maqolalari, boshqa davlatlarga do‘stona sayohatlari orqali o‘rganib chiqishgan. Shunday qilib, sovet modernizmi bir qancha arxitekturaviy an’analarni o‘z ichiga olgan.

Sovet modernizmi atamasi 2010-yilda Friderik Shoben “Citizin K” jurnalida birinchi marotaba tilga olgan. 2003-yil Tbilisi bozorida aylanib yurib, 1970-yillar arxitekturasiga oid jurnalni sotib oladi va bu binolar uni lol qoldiradi. Shundan so‘ng butun Sovet Ittifoqiga kirgan davlatlarini aylanib 100 dan ortiq binolarni ko‘zdan kechiradi. Shoben yaratgan albom butun dunining e’tiborini o‘ziga tortdi. Sababi, modernizm uslubining asosiy belgisi uning funksionalligi, geometrik shakllar va kompozitsiyaning murakkabligi bilan ajralib turar edi.


Yangi uslubdagi birinchi loyihiboridan biri Moskvadagi pionerlar saroyi (1958-1962) bo‘lib, unda bir guruh yosh me’morlar ish olib borishgan. Unda ko‘plab yangiliklar mavjud: ochiq kompozitsion, toza geometrik shakllar, interyer va landshaft o‘rtasidagi chegaralarni yo‘q qilish, yengil qurilmalar, katta soyabon, yangi materiallar va qoplamlalar. Ko‘plab yechimlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qurilish maydonchasida, qurilish jarayonida haqiqiy ijodkorlik muhitida topilgan.



Chumchuq (Воробьевый) tog‘idagi pionerlar va maktab o‘quvchilari saroyi



Ostankino telemisorasi



Ko‘pincha me’morlar kosmik mavzulardan ilhomlanishgan. Bunga sabab Sovet Ittifoqining 1950-yillar oxirida kosmosda yetakchilardan bo‘lgan. Ostankino televizion minorasi, qurilish

tugagach,o'sha davrning dunyodagi eng baland binosi edi, uning ko'rinishini raketaga qiyoslashsa, asosini esa nilufar gulining 10 ta bargiga qiyoslashar edi.

Sovet arxitekturasi nafaqat bir xil tipdagi binolar, balki shaharsoz mutaxassislar va havaskorlar uchun qiziqarli bo'lgan g'ayrioddiy noyob loyihalar ham qilingan. Bir qarashda bu binolar xuddi oddiydek, ammo ular diqqatga sazovor joylar ro'yxatiga kiritilgan noyob binolar sanaladi. Ularning ba'zilarini misol tariqasida keltirib o'tamiz:

"Kurpati" sanatoriysi



"Kurpati" sanatoriysining yuqorida va perspektiv ko'rinishi

Bu sanatoriy juda ham qurilish uchun noqulay joy bo'lgan, ammo qilim jihatidan dam olish uchun ayni muddao edi. Shu sabab, me'morlar nima qilib bo'lsa ham seysmik jihatdan noqulay bo'lgan Qrimga bu binoni 1980-1985-yillar oralig'ida qurishni maqsad qilishgan va bu ularning qo'lidan kelgan. Me'mor Igor Vasilevskiy va muhandis Nodar Kanchelining o'zaro kelishgan holda bu binoni 3 oyoqqa turg'izishdi va juda cheklangan hududda, 40 daraja qiyalik, ko'chkilar va zilzila xavfini hisobga olgan holda qurilishni doimo nazorat qilib turishgan.

Robototexnika va texnik kibernetika instituti



Robototexnika va texnika kibernetika binosining maket va perspektiv ko'rinishi

Sank-Peterburgdagi bu bino 1973-1987 –yillar oralig'ida qurilgan bo'lib, loyiha ustida Boris Artyushev va Stanislav Savinlar ish olib borgan. Binoning tarhiga nazar solsak, ikkita laboratoriya va bitta ishlab chiqarish binosidan tashkil topgan. Kompleksda dominant sifatida 77-metrik "beton lola" shaklidagi bino ko'zga tashlanadi. Bu binoda hozirda ham kosmik kemalarni sinash

uchun ulkan laboratoriya mavjud. 1990-yilga unga antenna o'rnatilgan bo'lib hozirda uning balandligi 105-metrni tashkil etadi.

Sulaymon-Too tog'ida tarixiy-etnografik muzey (Qirg'iziston, O'sh)



Muzeyning kirish qismi va interyeri

Tabiiy tog' g'orida muzey ochish qaroridan oldin, binoni restoranga berilishi rejalashtirilgan edi. Unga kirish qulqoqa o'xshash metall kamar shaklida qilingan. Ko'rgazma maydoniga aylangan g'or devorlarida 35 mingga yaqin etnografik eksponatlar, qadimgi g'or rasmlari-petrogliflarni ko'rish mumkin. 2009 yildan beri g'or YUNESKO merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Gruziya avtomobil yo'llari vazirligi (Gruziya, Tbilisi)



Gruziya avtomobil yo'llari vazirligining kunduzgi va kechki ko'rinishi

Gruziyadagi avtomobil yo'llari vazirligi Tbilisidagi eng mashhur modernistik bino va dunyodagi sovet me'morchiligining eng mashhur namunalaridan biri. Tbilisidagi avtomobil yo'llari vazirligining binosi Kura daryosining g'arbiy sohilida joylashgan bo'lib, modernistik yo'nalishni sevuvchilar uchun juda muvaffaqiyatli eksperimental bino. Bu bino ulkan beton nurlardan iborat bo'lib, nafaqat tashqi ko'rinishi, balki qurilish tarixi va me'moriy falsafasi bilan ham qiziq.

"Deyarli butun dunyo jurnallari 1974-yilda Tbilisida qurilgan Gruziya avtomobil yo'llari vazirligining ekstravagant binosining fotosuratlarini chop etdi", deb yozgan Nodar Mgaloblishvili va Tengiz Krirqueliya "Sovet Gruziyasining arxitekturasi" kitobida. — Ultra-zamonaviy, juda ham oldinga chiqqan konsol qavatlari bilan, bino birinchi qarashda hi-tech uslub bilan bog'liq, ammo

mualliflar tomonidan tanlangan murakkab kosmik rejalashtirish va konstruktiv tizim murakkab relyefga mos keladi, atrof-muhit bilan yaxshi uyg'unlashgan, qiziqarli siluet yaratadi. Gagarin ko'chasi va Kura xiyoboni orasidagi qiyalikdagi balandlik farqi taxminan 33 metrni tashkil qiladi. Beshta bir birining ustiga qo'yilgan panjara yoki ikki qavatli parallelepipedlarning o'tkir shaklli tayanchlarda turadi va bolalar konstruktorini eslatadi.

Karen Demirchyan nomidagi "Amalir" sport-konsert majmuasi

1980-1983-yillarda Armeniyada me'morlar Artur Tarxanyan, Grach Pogosyan, Spartak Xachikyan va Gurgen Mushegyan tomonidan loyihalashtirilgan.




**"Amalir" sport-konsert majmuasining
old ko'rinishi**



**"Amalir" sport-konsert majmuasining
tepadan ko'rinishi**

"Amalir" majmuasi 1983 yilda Tsitsernakaberd tepaligida qurilgan. Bu noyob bino uchun eng yaxshi jihozlar, sahnalar uchun yorug'lik va ovoz uskunalari, axborot taxtachalari va katok uchun muzlatish tizimlari ishlatilgan. Liftlar va eskalatorlarni o'rnatish uchun Yaponiyadan mutaxassislar taklif qilingan. Majmuada ochilganidan so'ng bir yarim yil o'tgach, yong'in sodir bo'lgan va 1987 yilgacha rekonstruksiya qilish uchun yopilgan edi.

"Amalir" da ikkita zal mavjud — konsert va sport, ikkalasi ham 6300 tomoshabinni o'z ichiga oladi. Binoda tekis devor juda kam va uning tarzi esa katta sariq rangli barilef bilan bezatilgan.

Ukraina axborot instituti binosi


Ukraina axborot instituti binosining umumiy ko‘rinishi

Bu bino 1970-1971- yillarda qurilgan bo‘lib, uni me’morlar Florian Yuryev va Lev Novikovlar loyihalashtirilgan. Muallifning loyihasiga ko‘ra, "Uchar likopcha" da yorug‘lik-musiqa teatri bo‘lishi kerak edi. Loyiha bo‘yicha ajoyib akustik zalni yaratishgan edi. Ammo konsertlar o‘tkazilmadi, chunki bino Ukraina ilmiy-texnik ekspertiza va axborot institutiga topshirildi.

1990-yillarning oxirida 16 qavatli bino tanazzulga yuz tutdi: ta’mirlash uchun pul yo‘q edi. 2015da "likopcha"ga yaqin bo‘lgan ulkan savdo markazini qurish rejalari paydo bo‘ldi. U demontaj qilishni rejalashtirilgan edi, lekin 2020 yozida institutning tomi tiklana boshladi — Kievdagi uchar likopcha joyida qoladigan bo‘ldi.

Toshkentdagi san’at saroyi (hozirda A.Navoiy nomidagi panorama kinoteatri)

Vladimir Berezin, Sergo Sutyagin, Yuriy Xaldeev, Dmitriy Shubaev loyihasiga asosan 1962-1964 – yillarda qurilgan bo‘lib, bu bino o‘sha davrdagi eng katta sig‘imli kinoteatr sanalgan, seysmik jihatdan juda ham barqaror, shuningdek eng so‘nggi texnologiyalardan foydalanib qurilgan akustik jihatdan o‘sha davrga nisbatan noyob bino sanaladi.



A.Navoiy nomidagi kinoteatri

Madaniy majmua bir — biriga bog‘langan ikkita binodan iborat: "kesilgan ustun" — asosiy zal, shuningdek uning yoniga qo‘shilgan 2 qavatlari foye. Modernizm uslubida yaratilgan cho‘zilgan foye, bu fonda kontrast vazifasini bajaradi. Oynaband galereyalar va shaklning yengilligi zamonaviylikni anglatadi, foyedagi ma’lum bir qismida yorug‘lik va soyalar o‘yinini aks etadigan naqshli devorlar, Sharq me’morchiligi an’analariga hurmatdir. Birgalikda butun majmua turli xil me’moriy vositalarning sintezidir.

Arxitektorlardan biri Sergo Sutyagin eslaganidek, "loyiha ustida ishslash "chordoqda, zulmatda va havo yo‘q joyda" amalga oshirilgan. Ishlab chiqilgan uchta variantdan mualliflik jamoasi seysmik jihatdan barqaror deb hisoblagan, yumaloq shakldagi asosiy zalga e’tibor qaratdi, ammo "menga shaxsan yoqmadi". "Shunday qilib, mening hamkasblarim (Vladimir Berezin, Yuriy Xaldeev, Dmitriy Shubaev) boshqa obyektlarga tarqalib ketishdi va men bu loyihani oxirigacha olib kelishim kerak edi. Me’mor sifatida men ushbu obyektda shakllandim."

Ajablanarlisi shundaki me’morning o‘ziga yoqmagan bu noyob bino 1966 yildagi zilzilada Toshkentdagi kinoteatrlar orasida yagona butun qolgan bino bo‘lib, talofatlarsiz qoldi. Bunga zalning devorlarini yig‘ish texnologiyasi (balandligi 22 m, qalinligi 25 sm) egri chiziqli panellardan-qobiq, shuningdek, auditoriya shiftlarida po‘lat radial fermalardan foydalanish (60 m oraliq oralig‘i) orqali erishildi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, bu davr me’morligi hozirgi arxitekturaning boshlang‘ich nuqtasi edi. Bu uslub g‘arbdan kirib kelganligiga qaramay har bir davlatning milliy koloriti, kelib chiqish tarixi va aholining dunyoqarashini hisobga olgan holda har yerda o‘ziga xos shakllana bordi. Arxitektura tarixda bunday davr hali hanuz tilga olinmagan edi, ammo ko‘pgina olimlarning izlanishi natijasida va yer yuzidagi aholining estetik zavq olishga bo‘lgan ishtiyoqi tobora kuchaygani sari bu uslubning muxlislari butun dunyo bo‘yicha ortib bormoqda. Bir qarashda bu uslub kam chiqimlik, tarixni inkor etish va tipovoy jihatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishiga qaramay, takrorlanmas noyob bino va inshootlarni ham dunyoga tanitdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Фредерик Шобен, «СССР: фотографии космических коммунистических конструкций» Taschen, 2011

2. «Советский модернизм. 1955-1985»
3. Селим Хан-Магомедов, «Архитектура советского авангарда»
4. Нодар Мгалоблишвили и Тенгиз Крирквелия в книге „Архитектура советской Грузии“
5. «Soviet Asia: Soviet Modernist Architecture in Central Asia», Roberto Conte and Stefano Perego
6. сборник "Советская архитектура шестидесятых годов" (отв. ред. А.В. Иконников и др.; Москва: Стройиздат, 1972)
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Архитектурный_модернизм
8. <https://realty.rbc.ru/news/5d62f0d99a79477803cb44ed>
9. <https://archi.ru/russia/48243/ot-obschego-k-znakovomu-i-obratno-ili-modernisty-vsekh-stran-soedinyaites>